

I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 51 261,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ga teng bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyator indeksi 110,4 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari, % da
2024- yil yanvar-dekabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish sohasida -111,4 % (umumiy ulushning 8,9 %), jami xizmatlar - 107,8 % (umumiy ulushning 40,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 103,0 % (umumiy ulushning 34,8 %), sanoat - 108,2 % (umumiy ulushning 16,0 %) ni tashkil qildi.



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

YAHMning o‘shida tarmoqlarning qo‘shgan hissasi

(jamiga nisbatan, % da)










YAHM o‘shiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,1 f.p. (2023- yil yanvar-dekabrda – 1,7 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,2 f.p. (2023- yil yanvar-dekabrda – 1,0 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,9 f.p. (2023- yil yanvar-dekabrda – 0,5 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2023- yil yanvar-dekabrda – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHMdagi ulushi 0,2 f.p. (2023- yil yanvar-dekabrda – 0,2 f.p.)ni tashkil qildi .



Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



	<i>mlrd so'm</i>		<i>2023- yil yanvar-dekabr nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	43 666,7	51 261,0	106,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 750,1	50 331,5	106,4
 mahsulotlarga sof soliqlar	916,6	929,5	106,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 750,1	50 331,5	106,4
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 175,7	17 540,7	103,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	10 079,7	12 531,1	109,4
 sanoat	6 439,0	8 061,0	108,2
 qurilish	3 640,7	4 470,1	111,4
Xizmatlar	16 494,7	20 261,7	107,8
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 931,3	7 358,6	111,5
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 251,8	3 053,9	115,5
 boshqa xizmat tarmoqlari	8 311,6	9 849,2	103,1

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'sir qurilish sohasida -111,4 % (umumiy ulushning 8,9 %), sanoat – 102,1 % (umumiy ulushning 16,0 %), jami xizmatlar - 107,8 % (umumiy ulushning 40,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 103,0 % (umumiy ulushning 34,8 %) ni tashkil qildi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 72,3 % i kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2023- yil yanvar-dekabrda 72,7 % ni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da (jamiga nisbatan foizda)

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 34,8 % ni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-dekabrga (37,8 %) nisbatan 3,0 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 24,9 % ni tashkil qilib, 2023 – yil yanvar-dekabrga (23,6 %) nisbatan 1,3 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 40,3 % ni tashkil qildi va o'tgan yilga (38,6 %) nisbatan 1,7 punktga ko'pdir.



● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-dekabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,3 % ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 72,7 %), hajmi 36 403,0 mlrd so‘mni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 31 062,7 mlrd so‘m) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.


Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)




	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2023- yil	31 062,7	72,7 %
2024- yil	36 403,0	72,3 %

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,5 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan tengdir.


Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, % da



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 25 452,4 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % oʻsishga erishildi.



**Xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**




2024- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 40,3 % (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 38,6 %) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 14,6 % ni (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 13,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 6,1 % ni (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 5,3 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 19,6 % ni (2023-yil yanvar-dekabr oylarida 19,4 %) tashkil etdi.

**O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-dekabr)**

	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>yanvar-dekabr 2023 - y.</i>	<i>yanvar-dekabr 2024- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	1 454 391,7	106,5	51 261,0	106,4	3,6	3,4
Sanoat	885 818,9	106,8	29 100,1	108,2	3,3	3,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	467 041,5	103,0	30 194,9	103,0	6,5	6,5
Investitsiyalar	493 652,0	127,6	14 795,3	114,7	3,3	3,0
Qurilish ishlari	233 832,9	108,8	10 657,2	111,4	4,3	4,6
Chakana tovar aylanmasi	403 431,8	109,9	16 083,6	109,9	4,0	4,0
Xizmatlar, jami	818 428,3	112,9	28 262,0	112,0	3,5	3,5
Eksport (mln AQSh doll.)	26 948,2	108,4	386,3	127,0	1,2	1,4
Import (mln AQSh doll.)	38 985,8	100,8	470,9	81,6	1,5	1,2

Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining Respublikadagi ulushi, %da



Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining O'zbekiston Respublikasidagi ulushi quyidagichadir. Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi- 3,5 %, sanoatda ulushi-3,3 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ulushi – 6,5 %, investitsiyada ulushi- 3,0 %, qurilish ishlarida ulushi- 4,6 %, chakana tovar aylanmasida ulushi- 4,0 %, xizmatlarda ulushi -3,5 %, eksportda ulushi – 1,4 %, importda ulushi- 1,2 % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 51 261,0 mlrd soʻmni (respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,5 foiz) tashkil qilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 106,4 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 29 100,1 mlrd soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,3 foizini) tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 108,2 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 30 194,9 mlrd soʻmni (respublikada qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarining ulushi 6,5 foiz) tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 103,0 foizga etdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 14 795,3 mlrd soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, oʻsish surʻati 2023- yilning shu davriga nisbatan 114,7 foizni (respublikadagi ulushi 3,0 foiz) tashkil etdi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida 10 657,2 mlrd soʻmlik (respublikadagi ulushi 4,6 foiz) qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 16 083,6 mlrd soʻmni (respublikadagi ulushi 4,0 foiz), oʻsish surʻati 2023- yilning shu davriga nisbatan 109,9 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha hajmi 28 262,0 mlrd soʻmni, (respublikadagi ulushi 3,5 foizni) tashkil qildi va 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish 112,0 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 857,2 mln AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), oʻsish surʻati 97,3 foizni, jumladan: eksport – 386,3 mln AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), oʻsish surʻati 127,0 foizni, import– 470,9 mln AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,2 foizni), oʻsish surʻati 81,6 foizni tashkil etdi.

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 34,8 % ni, sanoat tarmog‘i 16,0 % ni, qurilish 8,9 % ni va xizmatlar sohasi 40,3 % ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2024-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

